

Manzura Asqarova

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)*

PRODUKTIV O'QISH O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanlari jamiyat, iqtisodiyot va madaniyatdagi taraqqiyotga qarab o'zgarib, hayot davomida o'rganish konsepsiyasi yani, o'qish savodxonligi tushunchasini va unga qo'yiladigan talab xususida fikr bayon etilgan. Aytishimiz mumkinki, o'qish savodxonligi deganda o'quvchining turli xil hayotiy vaziyatlarda, jamiyatda yashashda, o'z turlari bilan muloqot qilishda foydalanadigan bilim, ko'nikma va strategiyalar to'plamini egallash va kengaytirish uchun doimiy qobiliyat tushuniladi.

Kalit so'zlar. Xalqaro baholash, reja, o'quv jarayoni, PISA, PIRLS, matn, savodxonlik.

ПРОДУКТИВНОЕ ЧТЕНИЕ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье изложено мнение о том, что предметы родной язык и грамотность чтения меняются в зависимости от развития общества, экономики и культуры, концепция обучения на протяжении всей жизни, то есть понятие грамотности чтения и требования к нему. Можно сказать, что под грамотностью чтения понимается умение учащегося осваивать и расширять знания, навыки и стратегические сети, которые он использует в различных жизненных ситуациях, жизни в обществе, общении со своими личностями.

Ключевые слова. Международная оценка, план, учебный процесс, PISA, PIRLS, текст, грамотность.

PRODUCTIVE READING AS A MEANS OF DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE

Annotation. The article expresses the opinion that the subjects of native language and reading literacy change depending on the development of society, economy and culture, the concept of lifelong learning, that is, the concept of reading literacy and its requirements. It can be said that reading literacy is understood as a student's ability to acquire and expand knowledge, skills, and strategic networks that they use in various life situations, life in society, communication with their personalities.

Key words. International assessment, plan, curriculum, PISA, PIRLS, text, literacy.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar bilimini baholash shakllari o'quvchining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish dinamikasini kuzatish orqali o'quv jarayonini rejalashtirishga imkon beradi. O'qituvchilar o'quvchilar belgilangan maqsadlarga erishganligini qayd etishlari kerak. Barcha o'quvchilarning rivojlanishini hisobga olish uchun quyidagi baholash shakllarida amalga oshiriladi:

1. Diagnostika – boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni majburiy va ommaviy milliy baholash sinovlarini tashkil etish;
2. Amaliy – o'quv yili davomida har bir o'quvchi kasbiy yo'nalishini aniqlaydigan tarzda baholanadi.
3. Formativ – o'quv jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarning doimiy monitoringi va baholanishi, ota-onalar, ta'lim vakillari bilan muhokama qilish hamda maslahatlashuvga muvofiq o'quvchining ta'lim yo'nalishini tashxis qiladigan o'qituvchining tavsiyasiga binoan o'quv yili davomida sinfdan sinfga o'tishini osonlashtiradi.

Har bir jarayonga sarflanadigan vaqt o'quvchining o'rganish ritmiga muvofiq bir yilga uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Biz o'qishning maqsad va vazifalari haqidagi fikrlarni taqqosladik, o'qish

ta'riflarida umumlashtirilgan PIRLS va PISA testlaridan olingan javoblarning samarali, funksional tomoni maktabda, shu jumladan, matnni tushunish qobiliyati va undan o'z muammolarini hal qilish uchun foydalanishga o'rgatiladi.

PISA testlari o'quvchilarning turli xil o'qish qobiliyatlarini mustaqil o'lchash uchun uchta asosiy shakli mavjud:

- 1) matndan ma'lumotni topish qobiliyati;
- 2) fanlarni integratsiya qilish qobiliyati va xabarlarni talqin qilish qobiliyati;
- 3) matnda aks ettirilgan fikrlarni o'z nuqtayi nazar bilan baholash qobiliyati.

Ushbu shakllardan ko'rinib turibdiki, har bir diagnostik savol va topshiriqlar o'quvchilarning o'qish mahoratining ko'rsatkichi sifatida belgilanadi. PISA testida o'quvchilarning o'qish qobiliyatlaridan tashqari, yosh kitobxonlar uchun yana bir jihatini ko'rish mumkin, ya'ni matndan olingan ma'lumotlar asosida bilimlarni shakllantirish va to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatiladi. Bu yoshga qarab belgilanadigan ikkita test uchun o'qish faoliyati tarkibini tushunish 9-10 yoshli o'quvchilar va 15 yoshli o'quvchilarni o'qish xususiyatlari bilan farqlanadi. O'quvchilar uchun matndan chiqarilgan so'zma-so'z ma'nolarni minimal qayta ishlash, albatta -bu murakkab jarayondir. 15 yoshli o'quvchilar uchun o'qish savodxonligi - bu yozma tushunish va undan foydalanish qobiliyati jamiyat talab qiladigan maqsadlar uchun har xil shakllarda nutq yoki shaxs uchun turli matnlar asosida uning zaruratini anglashga o'rgatiladi [1].

O'qish savodxonligi asosida o'quvchilar matnni tushunish va foydalanish qobiliyatini, ularning bilim va imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy hayot tushunchasini anglashga o'rgatiladi [4]. O'qish ustida ishlashning umumiy muvaffaqiyati bilan boshlang'ich maktabda savodxonlik PIRLS natijalari bilan tasdiqlangan, bu bosqichda o'qish ta'limida og'riqli nuqtalar mavjud bo'lib, ular boshlang'ich maktabda surunkali o'zlashtirmaslikka aylanib, murakkab jarayonga olib keladi. 2006-yilda o'tkazilgan PIRLS natijalari shuni ko'rsatdiki, umumiy yuqori natijalar bilan bilan ishlash, to'rtinchi sinf o'quvchilari tomonidan badiiy matnlarni tushunishdan ko'ra, axborot matnlari ular uchun yanada jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu bilan bir vaqtda, axborot matnlarini tushunishda kamchiliklar topildi. Matndan ma'lumot olish uchun asosiy o'qish ko'nikmalarida-aniq bayonot va unga asoslanib eng oddiy xulosalar chiqarish lozimligi aniqlandi. Ushbu natija o'qishni o'rgatish amaliyoti bilan izohlanib, bu darsliklar tahlili ishonchli tarzda namoyish etildi. Bugungi boshlang'ich maktablarda mavzu bo'yicha qo'llanmalar asosiy manba bo'lgan axborot matnlarini rivojlantirish va tekshirishga qaratilgan emas, balki o'qish ko'nikmalarini, mavjud faktlar asosida xulosalarni shakllantirish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Matndan aniq berilgan ma'lumotni qidirish, reproduksiyaga qisqartiriladi va kerakli ma'lumotlar iloji boricha soddalashtirilgan shaklda beriladi. Agar boshlang'ich maktabda o'quvchilar ba'zi qiyinchiliklarga duch kelsa, matnda kerakli ma'lumotlarni topish bilan eng sodda topilgan ma'lumotlarga asoslangan xulosalarga kelishi mumkin [2].

Boshlang'ich ta'limda tegishli muammolar 2 ta gipoteza talab qiladi, ya'ni 1) aniq doirada eksperimental o'rganish; 2) o'rganilgan ma'lumotlar asosida ijtimoiy hayotga bog'lash. PIRLS sinovidagi maktab o'quvchilarining muvaffaqiyati ularning matnlar orqali bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirishdir. Biroq bundan matnni vosita sifatida ishlatish qobiliyatiga tayyorlik o'z-o'zini o'rganish, ta'lim sifatini baholash natijalari to'g'risida faol "fikir-mulohazalar"ni taqdim etish, ta'lim ishtirokchilarini baholash natijalari va aniqlangan muammolarni, shuningdek, rivojlanish istiqbollari va yo'nalishlarini muhokama qilishga jalb qilish, ta'lim sifatini baholashning maqsadlari, tamoyillari, usullari va boshqa jihatlarini tushuntirish ishlarini olib boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Ushbu muhokama natijalari, boshqa amaliy ishlar qatori, metodologiya doirasida ko'rib chiqilgan umumiy ta'lim sifatini baholashning barcha tartib-qoidalarini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Quyida RO'SHM texnologiyasini keltirib o'tamiz. RO'SHM texnologiyasini – bu ma'lum bir mavzudagi yozma matnlarni yaratishga qaratilgan pedagogik usuldir. Mazkur texnologiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavzuni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish, yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish, matnlar yuzasidan xulosa chiqarish, o'rganilayotgan obyektlarni bir necha xususiyatlariga ko'ra tahlil qilish, turkumlash, muammolarni tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish, mustaqil va tanqidiy baho berish qobiliyatlarini shakllantiradi. Quyidagi jadvalda RO'SHM texnologiyasini amalga oshirish tartibi berilgan (*qarang 1-rasm*).

Rollar	O'quvchilar	Shakl	Mavzu
Rolni aniqlash uchun berilgan mavzuni kim ochib berishi mumkinligini	Ushbu matn kimga mo'ljallangan bo'lishi mumkinligini aniqlash	Hikoya qilish shakllarida janrni aniqlash	Mavzuni tanlash, matn nima haqida ekanligini, qanday asosiy g'oyalar

aniqlash			aks ettirilayotganini ochib berish
----------	--	--	---------------------------------------

1-rasm. RO'SHM texnologiyasini amalga oshirish tartibi.

RO'SHM texnologiyasi qo'llash uchun o'qituvchi mavzuni aniqlab olishi mavzu qiziqarli va dolzarb bo'lishi kerak. Bunday darsni o'tkazishda berilgan mavzu yuzasidan o'qituvchida g'oya va aktyorlik mahorati, chuqur bilim egasi bo'lishi lozim. O'qituvchi darsdan avval jadval tayyorlashi, uni shunchaki doskaga chizishi mumkin. Shuni esda tutish kerakki, barcha ustunlarni muhokama qilishda o'qituvchi barcha xulosalarni o'quvchilarga dars davomida ko'rinadigan qilib tuzatishi kerak bo'ladi, chunki o'qituvchi doimo ularga murojaat qilishi, muhokama qilishi, tahlil qilishi va to'ldirishi kerak bo'ladi. Muammoning mohiyatini yaxshiroq tushunishga, xarakterning his qilishga va unda mujassamlanishga vizual materialga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

RO'SHM texnologiyasi bosqichlari.

Tanqidiy fikrlashni o'qitishning tuzilishi va usullariga ko'ra, RO'SHM texnologiyasining bir necha bosqichlari mavjud.

Qo'ng'iroq bosqichi.

Ushbu bosqichdagi asosiy vazifa ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni faollashtirish, ularni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undashdir. O'quvchilar ushbu rol ni bajarishga mos keladigan barcha mumkin bo'lgan ijtimoiy guruhlarni taklif qilishadi. O'qituvchi tomonidan rollarni taqdim etish mumkin. Ikkinchi ustunda ushbu matnlar uchun maqsadli auditoriya sifatida harakat qila oladigan guruhlar qayd etiladi. Keyinchalik ijtimoiy rollar va o'quvchilar bilan bog'liq bo'lgan janrlar aniqlanadi. Matnning asosiy fikrlari va g'oyalari oxirgi ustunga kiritilgan. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi jadvalda keltirilgan barcha ma'lumotlarni o'qiydi. O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy rollar taqsimlanadi va ular matn yozishni boshlaydilar. Shu bilan birga, ularda chuqur fikrlash paydo bo'lishi mumkin bo'lgan shartlarni hisobga olishni unutmasdan, his qilish, tavsif obyektni tushunish, unga reen Karnatsiya qilishga urinish qanchalik muhimligini tushuntirish kerak. Ish individual yoki guruh tartibida ishlash tartibida amalga oshiriladi. Ikkinchisi esa kichik guruhlarga ustunlik beriladi. Vazifa bajarilganda bir nechta matnlar o'qiladi. Tanlov o'z xohishiga ko'ra yoki qur'a tashlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Agar o'quvchilar soni oz bo'lsa, barcha ishtirokchilarga ijro etish imkoniyatini berish mumkin.

Tushunish bosqichi

Darslik yoki qo'shimcha materiallar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda o'quvchilar yangi ma'lumotlarni olib, daftarda eslatmalar va izohlar berishadi.

Ko'zgu bosqichi

Ko'zgu bosqichi o'tgan materialni tahlil qilishni, tushunishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar ilgari ma'lum bo'lgan faktlarni va ular uchun yangi ma'lumotlarni muhokama qilish va taqqoslash, eshitganlarini tahlil qiladilar. Eng yaxshi natijaga erishish uchun berilgan mavzu bo'yicha vizual materialdan foydalanish tavsiya etiladi: fotosuratlar, slaydlar, ko'rgazmalar. Bu olingan bilimlarni mustahkamlashga va muhokama qilinayotgan tasvirni shakllantirishga yordam beradi.

RO'SHM texnologiyasini qo'llash.

RO'SHM texnologiyasi har qanday mavzuda faol ishlatilishi mumkin. Misol uchun, "O'qish" darslarida "Shoir", "Yozuvchi" tushunchalarini shakllantirish, jamiyatning ayrim qatlamlari yoki guruhlarni o'rganish, darslarda har qanday asar qahramonlarini muhokama qilish, "Shoir" va "Yozuvchi" tushunchalarining mohiyatini tushunish, shuningdek, kasbga yo'naltirish ishlarida (ma'lum kasb egalari: jurnalistlar, harbiy xizmatchilar, o'qituvchilar va boshqalarni ko'rib chiqishda) foydalaniladi.

Dars jarayonida o'qituvchi RO'SHM texnologiyasidan foydalanish bilan bog'liq jihatlarni tushuntiradi. Dars mavzusiga va tanlangan rolga to'la mos kelishi uchun vizual materialdan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarning e'tiborini yozuvchi va shoirlarning nutqi, jamoatchilikka ta'sirini o'qituvchi barcha ma'lumotlarni butun sinfga aniq taqdim etilgan jadvalda qayd etadi. Har bir o'quvchi yozuvlarni daftariga ko'chiradi. Ayniqsa, RO'SHM texnologiyasidan foydalangan holda dars birinchi marta sinfdan o'tkazilsa, hikoyalar mavzusini aniqlashdan oldin, har bir rolning xususiyatlarini tahlil qilish, yozishda yordam beradigan maslahatlar va fikrlar bilan bo'lishish tavsiya etiladi.

O'qituvchi dars mavzusini takrorlaydi: "Shoir" va "Yozuvchi" to'g'risida o'quvchilarning o'z hikoyalarini o'qishga taklif qiladi. Dars vaqtini taqsimlash juda muhim, shunda o'quvchilarning barcha asarlari aytiladi. Materialni mustahkamlash uchun qisqa frontal so'rovdan foydalanish mumkin. Darsning natijasi bajarilgan ishlarni muhokama qilish, natijalarni tahlil qilish, hikoyalarning asosiy umumiy fikrlarini ta'kidlash bo'lishi kerak. O'quvchilarning turli xil faktlarni taqdim etishdagi farqiga e'tibor berish kerak.

RO'SHM texnologiyasi "ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida o'quvchini mavzu mazmuniga to'liq singdirishga, o'zini-o'zi anglashga yordam beradi, o'qituvchida esa ijodkorlikni namoyish etishga,

58 improvizatsiya qilishga, berilgan sharoitlarda mumkin bo'lgan harakatlarni tahlil qilishga, voqealar va shaxslarga axloqiy baho berishga o'rgatadi.

Demak, shundan xulosa qilish mumkinki, PISA mutaxassislari o'qish savodxonligi tushunchasiga matnlarni o'qiyotganda jamiyatda yashash uchun bilim va salohiyatni olish, rivojlantirish qobiliyatini kiritadilar. O'qish savodxonligi tushunchasi matnlardan bilim olishda o'quvchining faol "dialogik" rolini anglatadi. Bizning fikrimizga ko'ra, "o'qish savodxonligi" boshqa fanlardan ham muhimroq ko'rsatkichdir, chunki u shaxsning ma'lumot olish va qayta ishlash qobiliyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хасанов Ш. Бадий асарнинг ўқув таҳлилида аналитик ёндашув // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2017 – №12-сон. – Б.9-12.

2. Сметанникова Н.Н. Компетенции чтения и компетентный читатель // Библиотека и чтение в структуре современного образования: сб. материалов конференции. – М.: Наука, 2009. – с. 165-166

3. Посашкова Е.В. Формирование читательской культуры младших школьников на уроках внеклассного чтения (на материале авторской программы по внеклассному чтению) // Ж. Педагогическое образование. – М.: 2009. №1. – С. 70-80.

4. Ismailov A. va boshqalar Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Toshkent, 2019-yil, 92 bet.